

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KITOGBA QIZIQTIRISH

Nurmatova Madina Odiljon qizi

Qo'qon DU o'qituvchi.

Abdusalomova Ozoda

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 205-guruh talabalar

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada o'quvchilarning yoshiga va qiziqishlariga mos keladigan adabiyot tanlash masalasi yoritilgan. Ayniqsa, sarguzashtli, ertak va qiziqarli hikoyalar orqali bolalarda kitobga nisbatan ijobjiy munosabat shakllantirish, kitobxonlikni erta bosqichdanoq rivojlantirish yo'llari tahlil etilgan. Maqolada ota-onalar va o'qituvchi namunasi, dramatik o'qish mashg'ulotlari, muktab kutubxonasi faoliyati va turli rag'batlantiruvchi tadbirlarning kitobga bo'lgan mehrni shakllantirishdagi roli ilmiy asosda bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchilar, kitob, ota-onalar, muktab, kitobxon, kutubxona, ertak

### **Asosiy matn**

Bolalarni yoshligidan boshlab kitobga qiziqtirish – bu biz, kattalarning eng muhim vazifalaridan biridir. Ularning yoshiga mos va qiziqarli adabiyot tanlash, ayniqsa, sarguzashtli, ertak va rang-barang hikoyalar tanlash orqali bolalarda kitobga nisbatan ijobjiy munosabat shakllantiriladi. Bu borada ota-onalar va o'qituvchining o'rnan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar odatda kattalarning xatti-harakatlarini kuzatadi va ularga ergashadi. Agar ota-onalar yoki o'qituvchi kitob o'qishni sevsalar, bola ham bu odatni qabul qiladi.

Dramalashtirilgan o'qish mashg'ulotlari – ya'ni o'qilgan matnlarni sahnalashtirish, rollarga bo'lib o'qish – o'quvchilarning matnga bo'lgan qiziqishini oshiradi va uni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni targ'ib etish pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Bu jarayon orqali nafaqat kitobxonlik kompetensiyasi rivojlanadi, balki o'quvchining boshqa fanlarni o'zlashtirish darajasi ham oshadi. Muktab kutubxonasi esa badiiy adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojni qondiruvchi asosiy manbadir. Unda bolalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos adabiyotlarni topish mumkin.

Kitobxonlikka jalgan etish jarayonida oilaviy muhit, boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilim va tajribasi, muktab kutubxonachisining kasb mahorati hal qiluvchi omillar sirasiga kiradi.

Qiziqarli statistik ma'lumotga ko'ra, hozirgi kunda Yer yuzida 129.864.880 dan ortiq kitob mavjud. Ayniqsa, 4-6 yoshli bolalar kitob o'qishga osonlik bilan o'rganadilar. Kitob o'qish so'z boyligini oshiradi, xotirani mustahkamlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Yangi O'zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida ta'lif tizimini yuksaltirish, uchinchi Renessans davrini yaratadigan barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xalq ta'limi sohasini tubdan isloq qilish bo'yicha bergen topshiriqlarida bu masalalar keng yoritilgan.

Zamonaviy texnika rivojlangan, gadjetlar asriga aylangan bir paytda bolalarni mutolaaga qiziqtirish murakkab jarayon bo'lib qolmoqda. Biroq to'g'ri yondashuv va metodik yechimlar orqali bu jarayonni samarali tashkil etish mumkin. Kitob mutolaasini to'g'ri yo'lga qo'yish – ilm-fan va texnika sohalarida yuksalishga yo'l ochadi.

Bugungi kunda kitob bolalar tarbiyasida, xususan, ma'naviy-axloqiy jihatdan voyaga yetkazishda beqiyos o'rinni tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun esa kitob nafaqat bilim manbai, balki dunyoqarashni kengaytiruvchi, fikrlashni o'stiruvchi vositadir. Shu sababli, ularni kitob o'qishga erta yoshdan jalb qilish eng muhim vazifalardan biridir. Bu borada o'qituvchi va ota-onalarning sabr-toqati, e'tibori va uzluksiz yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitob o'qishga mehr qo'ygan bola mustaqil fikrlashni o'rganadi, so'z boyligi ortadi, ifoda qilish qobiliyati rivojlanadi.

### Samarali usullar quyidagilar:

Qiziqrli kitoblarni tanlash: Rangli rasmlar, sarguzashtlar, ertaklar – yosh bolalarni eng ko'p jalb qiladigan adabiyotlar turidir. Ularga mos, mavzusi jozibali, o'zlashtirishga oson asarlar tanlanishi kerak.

O'qituvchi va ota-onaning roli: Bolaga kitob o'qib berish, u bilan birga muhokama qilish, voqealarni tahlil qilish orqali kitobga mehr uyg'otish mumkin.

Kitobxonlik burchaklari va musobaqalari: "Eng faol kitobxon", "Kitoblar olamiga sayohat" kabi tadbirlar o'quvchilarda rag'bat uyg'otadi.

Rolga kirib o'qish: Matnni dramatik tarzda o'qish – ya'ni xarakterli ovoz va hissiy ta'sir bilan – o'quvchilar tasavvurini boyitadi.

### Xulosa

Kitobga bo'lgan mehr bolalikdan boshlanadi. Bu muhabbatni shakllantirish esa o'qituvchi va ota-onaning fidoyiligi, e'tibori, sabr-toqati va to'g'ri yondashuviga bog'liq. Agar bola o'z dunyosini kitob orqali boyitishni erta o'rganib olsa, u hayotda o'z yo'lini topa oladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Nurmatova, M. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." International Bulletin of Applied Science and Technology, 3 (2023): 151–154.

2. Nurmatova, M.O.Q. "Is'hoqxon Ibratning ilm va ma'rifat sohasidagi xizmatlari." Academic Research in Educational Sciences, 3.NUU Conference 2 (2022): 419–422.
3. Нурматова, М.О.К. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." Молодежь и XXI век (2015).
4. Нурматова, М. "Учитель-руководитель воспитания." Актуальные научные исследования в современном мире, 8–2 (2018): 58–60.
5. Нурматова, М. "Произведение «Одоб ас-салихин» – настольная книга с вежливости и правил поведения." Актуальные научные исследования в современном мире, 5–6 (2018): 53–55.
6. Boshlang‘ich ta’lim jurnali.
7. Tarbiya kitobi.
8. Bolalar adabiyoti jurnali.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
10. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)